



2/2023

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



2/2023

<b>MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS</b>		
<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ</b>		
<b>Latipov H.M.</b>	To'rtinchи tartibli operatorli matritsaga mos Fredgolm determinantining asosiy xossalari	3
<b>Norqulov J.F., Kengboyev S.A., Azimov R.B.</b>	Silindrik tishli uzatmalarda tishning qiyalik burchagi o'zgarganda ta'sir qiladigan kuchlarni aniqlash va ishlash samaradorligini takomillashtirish	9
<b>Alimov H.N., Mirzayev B.R., Toshmatov D.Sh., Yo'ldoshev B.A.</b>	Kasr tartibli diffuziya tenglamasidan manbani aniqlash masalasi	13
<b>Faxxodov S.U., Yusupov X.N., Doliyev Sh.Q., Toshtemirov R.T.</b>	Po'lat ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilishda optimallashtirish usulini qo'llash	20
<b>Ibdullahayev M.X., Norqulov J.F., Saidov B.Y.</b>	Neft va gaz sanoati korxonalarida issiqlik almashinish apparatlarining zamonaviy samarador konstruksiyasining hisobi	28
<b>Nuriddinov J.Z., Primov J.F.</b>	Parabolik tipdagi integro-differensial tenglama uchun teskari masalalar	36
<b>Sayliyeva G.R.</b>	Uch o'lchamli qo'zg'alishga ega umumlashgan Fridrixs modelining xos qiymatlari haqida	45
<b>To'rayev Sh.D., Norqulov U.E., Nazarov M.M.</b>	Turbogeneratorning texnik holatini baholash metodologiyasi	51
<b>Юлдашева Н.Б.</b>	Темир боратнинг оптик, магнитооптик ва фотомагнит хоссалари	57
<b>Shoimov B.S., Jamolov Sh.J.</b>	Singulyar koeffitsiyentga ega bo'lgan giperbolik tipdagi tenglama uchun Koshi masalasi	66
<b>Jumayev J., Muhammadova M.</b>	Ochiq oqim kengayishi kattaligidan turbulent qovushoqlik tenglamasi modelida foydalanish	71
<b>Фаязов К.С., Худайберганов Я.К.</b>	Условная корректность начально-краевой задачи для системы неоднородных уравнений параболического типа с двумя линиями вырождения	76
<b>Jumayev J., Baqoyeva S.T.</b>	Nostatsionar konveksiya masalasini oshkor usulda yechish	86
<b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>		
<b>Akramov I.I.</b>	Researching the origins of aphorisms	91
<b>G'aybullayeva N.I.</b>	Tilga kognitiv yondashuvning shakllanish taraqqiyoti	95
<b>Raxmatova M.M., Inoyatova D.I.</b>	O'zbek badiiy adabiyotida xunuklik tushunchasining ifodalanishi	100
<b>Қутлиева М.Ф.</b>	Инглиз ва ўзбек тилларида кўшма сўзларда ургунинг аҳамияти	105
<b>Maxmudova S.X.</b>	"Ostona" konsepti lingvomadaniy birliklarining badiiy matndagi o'rni	110
<b>Rabiyeva M.G', Mustoqova S.U.</b>	Evfemizmlarning ingliz va o'zbek tillarida lingvomadaniy shartlanishi	115
<b>Navruzova N.X.</b>	Connotation in verbs and its expressive functions	119
<b>Nazarova N.A.</b>	Bases of the theoretical study of anthroponyms and their	126

	characteristics	
<b>Saidov Kh.Sh.</b>	Economizing language resources on the example of the word formation of modern English slang	132
<b>Sharipova D.Sh.</b>	The linguistic relationship of symbols	136
<b>Абдувахабова Д.Н.</b>	Тилшуносликда эмотивлик, модаллик ва баҳолаш категорияларининг ўзаро боғлиқлиги	143
<b>Джалилова З.Б.</b>	Инглиз ва ўзбек тилларида гул номларининг лексик-семантик майдони ҳамда лингвопоэтик хусусиятлари	147
<b>Ибрагимова Н.А.</b>	Аутентик матн тушунчаси, турлари ва таснифи	154
<b>Қаршиев Н.Т.</b>	Қоракўлчилик терминларининг ясалиш усуллари	159
<b>Zikrillayev G.“N., Ro‘ziyev Y.B., Safarov F.S.</b>	Dialektik materializm va tilshunoslik metodologiyasi	168
<b>Fayziyeva A.A.</b>	Inson his-tuyg‘ulariga oid konseptual modellar	176
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Axmedova S.H.</b>	Ingliz va o‘zbek ertaklarida epik ko‘makchilar talqini va tasviri	181
<b>Davronova Sh.G‘.</b>	Isajon Sultonning “Bibi Salima” hikoyasida milliylik ifodasi	187
<b>Djumayeva N.</b>	Ingliz hamda o‘zbek xalq ertaklaridagi sehrli buyumlar orqali milliy madaniyatning ifodalananishi	192
<b>Karimova D.H., Ahmadova X.N.</b>	Aka-uka Grimm ertaklari o‘zbekcha tarjima variantlarining shakllanish omillari va paradigmatik belgilari	198
<b>Khayrullayeva N.N.</b>	The analysis of the setting in the eco-fiction novels “Time is a river”, “Sweetgrass”, “The summer of lost and found” by American writer Mary Alice Monroe	203
<b>Nodirova F.X.</b>	Sa’dulla Hakim she’riyatida adabiy g‘oya va tahlil	209
<b>Rakhmatova M., Rakhmonova J.</b>	XXI Century American prose: analysis of “The hunger games” by Susanne Collins	214
<b>Xamdamova S.B., Tilavova N.</b>	Charlz Dikkensning “Nikolas Niklbining hayoti va sarguzashtlari” romani kompozitsiyasi va tarbiya romanining janr xususiyatlari	219
<b>Jo’rayeva M.J.</b>	Hilda Dulitl she’riyatida imajism ifodasi	225
<b>Одилова Г.</b>	Болалар адабиётида глюттоник дискурс таржимасида услугуб ва маъно адекватлиги	229
<b>Mizrabova J.I.</b>	Uillyam Shekspirning “Qirol Lir” nomli asari tarjimalarida kalamburning qayta vogelantirishdagi muammolari	235
<b>Эльманова М.Т.</b>	Проблема семейных ценностей в романах Джойс Кэрол Оатс “Мать, пропавшая без вести” и “Мы были Малвэнами”	245
<b>MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Narziyeva D.I.</b>	Mashrab devonlari nashrlaridagi tafovutlar	249
<b>“NAVOIY GULSHANI”</b>		
<b>Amonova Z.Q.</b>	Yuzungda zarvaraq har yonki lutfi benihoyatdur	253
<b>PEDAGOGIKA *** ПЕДАГОГИКА *** PEDAGOGICS</b>		
<b>Burxonova M.X.</b>	Tibbiy madaniyat tushunchasining shakllanish tarixi	255
<b>Sariyev R.Sh.</b>	Chizmachilik fanida ijodiy loyihalash faoliyatining pedagogik-psixologik xususiyatlari	259
<b>Xodjayev R.I.</b>	Bokschilarni tayyorlashning psiko-fiziologik xususiyatlari	263
<b>TARIX *** ИСТОРИЯ *** HISTORY</b>		
<b>Ражабова Д.Я.</b>	Бухоро амирлигидаги сунний-шия ихтилофлари тарихидан	267

INSON HIS-TUYG'ULARIGA OID KONSEPTUAL MODELLAR

Fayziyeva Aziza Anvarovna,  
Buxoro davlat universiteti  
Tarjimashunoslik va lingvovididaktika kafedrasи katta o'qituvchisi  
[a.a.fayzieva@buxdu.uz](mailto:a.a.fayzieva@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tilida inson hissiyotlarining konseptuallashuvi, ularning metaforik modellari tahlil qilingan. Konseptual metafora nazariyasiga ko'ra abstrakt tushunchalar inson tafakkurida unga aniq bo'lgan tushunchalar, tajribalar yordamida anglanadi. Ingliz tilida tizimlashgan hissiyotga oid konseptual metaforalar strukturaviy, ontologik hamda oriyentatsion turlarda voqelangan bo'lib, hissiyotlar-obyekt, hissiyotlar-issiqlik, hissiyotlar-sovuqlik, hissiyotlar-suyuqlik, hissiyotlar-tepa, hissiyotlar-past kabi metaforik modellar shaklida uchrashi tahlilda namoyon bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** konseptual metafora, metaforik model, orientatsion metafora, strukturaviy metafora, ontologik metafora, hissiyotlar.

**Аннотация.** В статье анализируется концептуализация человеческих эмоций и их метафорических моделей в английском языке. Согласно теории концептуальной метафоры, абстрактные понятия понимаются в терминах других концепций и опытов, которые были ранее известны. В английском языке концептуальные метафоры эмоций вербализуются в структурном, онтологическом и ориентационном типах. В частности, в анализе были проявлены такие метафорические модели, как эмоции - объекты, эмоции - тепло, эмоции - холод, эмоции - жидкость, эмоции - вверх, эмоции - вниз.

**Ключевые слова:** концептуальная метафора, метафорическая модель, ориентационная метафора, структурная метафора, онтологическая метафора, эмоции.

**Abstract.** The article analyzes the conceptualization of human emotions and their metaphorical models in English. According to the conceptual metaphor theory, abstract concepts are understood in terms of other concepts and experiences that are previously known to us. In English, conceptual metaphors of emotion are verbalized in structural, ontological and orientational types. Particularly, metaphorical models such as emotions are objects, emotions are heat, emotions are cold, emotions are liquid, emotions are up, emotions are down were manifested in the analysis.

**Keywords:** conceptual metaphor, metaphorical model, orientational metaphor, structural metaphor, ontological metaphor, emotions.

**Kirish.** Metaforalar tilshunoslik, tarjimashunoslik, stilistika kabi fanlar uchun doimiy qiziqish uyg'otib kelgan tadqiqot obyekti sifatida kognitiv tilshunoslikda ham markaziyo'rinni egalladi. Til va tafakkurning ajralmasligi, o'zaro bog'liqligi, tafakkur jarayonlarining tilda voqelanishi metaforalarning yaralishiga zamin yaratса, metaforizatsiya natijasida shakllangan lingvistik birliliklar keyinchalik insonning ongini, fikrlash tarzini boshqaradi. Inson borliqni tafakkurida aks etgan metaforalar yordamida anglab, yangi bilimlarni guruhshtiradi, tasniflaydi hamda ularga baho beradi.

Hissiyot shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlaridan kelib chiqadigan kechinmalari hisoblanishi ma'lum. Shaxs tirik mavjudot bo'lishi bilan birga jamiyat a'zosi hamdir, shuningdek, yakka inson sifatida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga munosabatini xolisona aks ettiradi. Inson hissiyotlari nafaqat uning tana a'zolari, xatti-harakatlari yoki yuz ifodasida, balki tilda ham voqelanadi. Hissiyotlarni abstrakt voqelikdan moddiylikka o'tkazish ular bilan bog'liq konseptual metaforalarda namoyon bo'ladi. Masalan, ANGER IS FIRE/G'AZAB – OLOV konseptual metaforasida ushbu ikki konseptning birlashuvini kuzatish mumkin.( Qarang: 1-jadval):

ANGER IS FIRE/G'AZAB – OLOV konseptual metaforasi

1-jadval

Those were inflammatory remarks.	Bu yondiruvchi so'zlar edi.
Smoke was coming out of his ears.	Qulqlaridan tutun chiqayotgan edi.
She was burning with anger.	U g'azabdan yonardi.

**LINGUISTICS**

He was <i>spitting fire</i> .	U olov <i>ufurardi</i> .
The incident <i>set the people ablaze</i> with anger.	Bu voqealarda <i>g'azab olovini yoqdi</i> .

Yuqoridagi misollardan g'azab va olov o'rtaqidagi kognitiv ko'chishni quyidagicha izohlash mumkin:  
 olovning sababi → g'azabning sababi  
 olov ichidagi narsa → g'azabdagi inson  
 olov → g'azab  
 olovning shiddati → g'azabning shiddati

Demak "jahl, g'azab" tushunchalari aks etgan har beshala gapdagi metaforik iboralarda "olv" konseptiga xos so'zlardan foydalanilgan va "G'AZAB – OLOV" konseptual metaforasi atrofida umumiylashtirilgan. Bunda "g'azab"ni yoritib berish – maqsad soha, *yondirmoq, olov tupurmoq, yonmoq, olovini yoqmoq* kabi so'zlarni o'z ichiga oluvchi "olv" konsepti esa manba sohadir.

Konseptual metaforalar, jumladan, inson his-tuyg'ulariga oid metaforalar shaxsiy rivojlanish adabiyotlarida ham qo'llanilishi tabiiy bo'lib, mazkur diskursning maqsadi nuqtai nazaridan olib qaraganda, inson hissiyotlariga ta'sir o'tkazish, insонning nafaqat atrofni, balki ichki olamidagi jarayonlarni ham anglashga urinishi tabiatidan kelib chiqadi.

Fikr va g'oyalar kabi, hissiyotlar ham ingliz tilida moddiy ko'rinishda ifodalanishi EMOTIONS ARE OBJECTS / HISSIYOTLAR– OBYEKTLAR metaforik modeli misolida ko'rish mumkin.

You are designed mentally and emotionally in such a way that task completion *gives you a positive feeling*. (Eat that Frog, P.12) // Siz aqliy va hissiy jihatdan shunday tuzilgansizki, ishni yakunlash *sizga yoqimli hissiyot beradi* (Samaradorlikning 21 yo'li, B. 9.)

The difference is that *you get a tremendous feeling of pride and satisfaction* from the completion of something valuable and significant. (Eat that Frog, P.31.) // Farqi shundaki, chindanda muhim va zarur vazifani ado etganingizda o'zingizdan *faxrlanish hamda qoniqish hisini tuyasiz*. (Samaradorlikning 21 yo'li, B. 22.)

Ingliz tilidagi *gives you a positive feeling* va *you get a tremendous feeling* jumlalari hissiyotlarni berish yoki olish mumkinligini ko'rsatib, ularga ishora qiluvchi *to give* – narsa-predmetni bermoq, *to get* – narsa- predmetni olmoq ma'nolarida keladi. Birinchi misolning tarjimasida o'zbek tilida ham HISSIYOTLAR – OBYEKTLAR metaforik modeli qayta yaratilgan. Pol Ekman tadqiqotlari natijasida taklif etilgan hissiyotlar universalligi (Emotion universality) gipotezasi boshqa tadqiqotchilar tomonidan qisman rad etilsa-da, hissiyotlarning asosiy qismi xalqlarning madaniyatidan qat'i nazar, birdek his etiladi, bu o'xshashliklar tilda ham aks etadi. [1, 45-60]

Hissiyotlar haqida ingliz tilida shakllangan EMOTIONS ARE LIQUID / HISSIYOTLAR – SUYUQLIK konseptual metaforasi his-tuyg'ular ingliz tilida so'zlovchilar tasavvurida tanada suyuqlik ko'rinishida mavjud bo'lishi va harakatlanishini ko'rsatadi. Ingliz lisoniy olamida emotsiyalarning turli vaziyatlarda tushunlishi, uning turli shakkllari suyuqlik bilan bog'liq tushunchalar doirasida anglanishi quyidagi kognitiv xaritalashda izohlangan (Qarang: 2-jadval):

### His-tuyg'ularning suyuqlik tarzida anglanishi

2-jadval

Suyuqlik	→	Hissiyot
Suyuqlikning iste'molchisi/idishi	→	Hissiyotning iste'molchisi/idishi
Suyuqlikning tanaga kirishi	→	Hissiyotning tanaga kirishi
Suyuqlikka ehtiyoj sezish	→	Hissiyotga ehtiyoj sezish
Suyuqlikning moddiy holati	→	Hissiyotning moddiy holati
Suyuqlik moddiy holatining o'zgarishi	→	Hissiyot moddiy holatining o'zgarishi
Suyuqlik miqdori	→	Hissiyot miqdori
Suyuqlik harakati	→	Hissiyot harakati
Suyuqlikda bo'lish sharti	→	Hissiyotda bo'lish holati

Hissiyotlarning moddiylashuvi aynan suyuqlik kabi his qilinishiga, ehtimol, insonning butun tanasi bo'ylab tarqalgan nerv tolalarida ma'lumotlarning markaziy nerv tizimidan tanaga tarqalishi jarayonida bo'ladigan sezgilar ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Hissiyotlarning konseptuallashuvi nafaqat kognitiv

## LINGUISTICS

lingvistika, balki neyrolingvistika doirasida ham tadqiq olib borilsa, inson tajribalari konseptualizatsiyasi va metaforizatsiya jarayonlariga yanada aniqlik kiritilgan bo‘lar edi.

Shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlar jonli tilni namoyon etuvchi diskurs sifatida his-tuyg‘ularni aks ettiruvchi konseptual metaforalar orqali o‘quvchini o‘z hissiyotlariga bo‘lgan munosabatini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Mich Elbomning “Morrining seshanba darslari” asari g‘oyasi asosida o‘quvchining hayotga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirish, vaqtini, hayotni qadrlashga o‘rgatish, hissiyotlarni qabul qilib, ularni to‘la his qilishga odatlantirish yotadi. Shuning uchun “Morrining seshanba darslari”da inson hissiyotlariga oid metaforik modellar boshqa asarlarga nisbatan ko‘proq tahlilga tortilgan. But by *throwing yourself into these emotions*, by allowing yourself to *dive in*, all the way, over your head even, you experience them fully and completely. (Tuesdays with Morrie, P.30.) // Ammo o‘zingni bu hech bir hadiklarsiz *tuyg‘ular ummoniga otib, unga tamoman g‘arq bo‘lgach*, erkingni butunlay his-tuyg‘ular ixtiyoriga topshirish orqaligina ularni to‘laligicha his etasan. (Morrining seshanba darslari, B.87.)

Misolni tahlil qilsak, *throwing yourself into these emotions* – tuyg‘ular ichiga o‘zini otmoq, *allowing yourself to dive in, all the way, over your head* – boshi bilan ularga butunlay sho‘ng‘imoq kabi iboralar hissiyotlarning tanadan tashqarida qabul qilinishini ko‘rsatadi. XVII asrlarda Yevropada ratsionalizm falsafiy qarashlarining paydo bo‘lishi, insonning borliqni aql orqali tahlil qilib, tanishiga unday boshladidi. Hozirgi kunga kelib, insoniyat uchun *aql yoki qalb* masalasi dilemma bo‘lib, olamni anglash ratsional fikrlashga tayanishini qo‘llovchilar ko‘plab topiladi. Jamiyatdagi bunday ideologik qarashlar, eng avvalo, tilda aks etadi, shuning uchun aqlga oid konseptual metaforalar keng ko‘lamda shakllangan va tadqiq qilingan. Shunga qaramay, shaxsiy rivojlanish adabiyoti yozuvchilari inson hissiyotlarini hayotning ajralmas bir qismi sifatida ko‘rib, ularni rad etish emas, balki to‘laqonli his qilish, hissiyotlarga “cho‘milib” yashashni tatbiq etishadi.

Hissiyotlarga oid konseptlar harorat konseptlari bilan ham chambarchas bog‘lanib ketgan, ularga ijobiy yoki salbiy baho haroratning issiq/sovugligi nuqtai nazaridan kelib chiqib beriladi. Ijobiy hislar iliqlik, salbiylari esa sovuq konseptiga tenglashtiriladi. Ingliz tilida kundalik nutqda “*warm love*” (iliq muhabbat), “*chilled with fear*” (qo‘rquvdan muzlamoq), “*heartwarming*” (qalbga iliqlik beruvchi) iboralari tez-tez qo‘llaniladi. J.E.Vaggoner tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijasida, bolalar va yoshi kattalar muhabbat va g‘azabni yuqori harorat, qo‘rquvnii esa quyi harorat bilan bog‘lashar ekan. [2, 233-245]

Misollarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ikki qarama-qarshi, ya’ni ijobiy va salbiy tuyg‘ular bir-biriga zid metaforik modellarda voqelanganini ko‘ramiz. I asked excitedly, *warming to the concept*. (The Café on the Edge of the World, P.37) // Men bu konsepsiyaga *mehrim tovlanganidan* hayajonlangan ko‘yi so‘radim. (Yer chekkasidagi qahvaxona, B.42.) Love-hate overreactions, fight-or-flight tendencies, withdrawal, aggressiveness, bitterness, resentment, and *cold competition* are some of the usual results. (7 Habits of highly effective people, P.54.) // Natijada sevgi va nafratning haddan tashqari oshishi, jang va kurashishga moyillik, chekinish, tajovuzkorlik, g‘azab, nafrat va *sovug raqobat* vujudga keladi. (Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko‘nikmasi, – B.123) Holding him like that moved me in a way I cannot describe, except to say I felt the seeds of death inside his shriveling frame, and as I laid him in his chair, adjusting his head on the pillows, I had the *coldest realization* that our time was running out. (Tuesdays with Morrie, P.18.) // Uning so‘lib borayotgan tanasida o‘lim urug‘lari nish urayotganini his qildim. Uni kursiga yotqizib, yostiqni boshiga to‘g‘rilab qo‘yar ekanman, *achchiq haqiqatni* – vaqtimiz tugab borayotganini his qildim. (Morrining seshanba darslari, B.51.)

Yuqoridaq misollarda kelgan jumlalar tahlil qilinsa, *warming to the concept* (konseptga nisbatan yuragi ilimoq) iborasi ingliz tilida shakllangan POSITIVE FEELINGS ARE HEAT / IJOBIY HISSIYOTLAR – ISSIQLIK, *cold competition* (sovug raqobat), *coldest realization* (sovug haqiqatni anglamoq) iboralari NEGATIVE FEELINGS ARE COLDNESS / SALBIY HISSIYOTLAR – SOVUQLIK konseptual metaforalarining tilda ifodalangan shakllari ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur metaforik modellar konseptualizatsiyasi insonning tana haroratining hissiyotlar natijasida yuqorilashi yoki tushushiga taqaladi. Issiqlik doimiy ravishda ijobiy hissiyotlar bilan assotsiatsiya qilinmaydi, odatda, ijobiy tuyg‘ular iliqlik tarzida, jahl, g‘azab, hayajon kabi hislar esa issiqlik bilan birga tushuniladi. O‘ta issiq harorat insonning kayfiyatiga va tabiatiga ta’siri psixologlar tomonidan isbotlangan jarayon, boshqa tarafdan olib qaraganda, g‘azabi chiqqan inson sovuq joyda o‘tirgan bo‘lsa ham, jahl sababidan tana harorati ko‘tarilib, qizib ketishi hammaga ma’lum. Issiqliknинг intensivligi hissiyotlarning ham intensivligi, kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, barcha salbiy tuyg‘ular faqat sovuqlik ma’nosida his qilinmaydi, aksincha, issiqlik tushunchasi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Konseptlar tilda verballahib, madaniyatga va hissiyotlarning qanday qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatib boradi.

## LINGUISTICS

Qo‘rquv, hafsalasi pir bo‘lish kabi holatlar qon aylanishining sekinlashuvi sabab tanadagi haroratning tushishidan sodir bo‘ladi. Yuqoridagi misollarda kelgan *cold* sifati sovuq ma’nosiga ega bo‘lsa-da, kontekstga qarab, farqli hissiyotlarni ifodalashi mumkin. Masalan, yuqoridagi ikkinchi misolda kelgan *cold competition* (sovuq raqobat) iborasi oilada vujudga kelishi mumkin bo‘lgan nafratli munosabatlar, o‘zaro kimo‘zarga kurashishlarni anglatса, keyingi misolda, haqiqatni anglagach, to‘satdan keladigan qo‘rquvni aks ettiради. O‘zbek tilida ham ingliz tilida bo‘lgani kabi, hissiyotlar issiqlik yoki sovuqlik nuqtayi nazaridan ijobjiy/ salbiy baholanadi. Biror kishiga yoki narsaga nisbatan munosabatning yaxshi tomonga o‘zgarishida ko‘ngli ilimoq, biror ishdan, aksincha, hafsalasi pir bo‘lsa ko‘ngli sovumoq, qo‘li sovumoq kabi iboralar qo‘llanadi.

Hissiyotlar bilan bog‘liq metaforizatsiya ularning orientatsion tabiatini ham ko‘rsatadi. Ingliz tilida shakllangan HAPPINESS IS UP / SADNESS IS DOWN (BAXT – TEPA / XAFALIK – PAST) konseptual metaforasi xursandchilik tuyg‘ularni boshidan kechirayotgan inson o‘zini go‘yo tepada, xafa inson esa ruhining pastda ekanini his qiladi, bunda inson ruhi ma’lum darajadan tepaga yuqorilaydi yoki pastga qarab harakatlanadi. Ingliz tilida mavjud idiomalar ham ushbu metaforik modelni yaqqol ko‘rsatib beradi: *in seventh heaven* – yettinchi osmonda, *to be on cloud nine* – to‘qqizinchi bulutda bo‘lmoq, *to jump for joy* – xursandlikdan sakramoq, *flying high* – tepada uchmoq, *walking /floating on air* – havoda suzib yurmoq. Ushbu idiomatik birliklar o‘zbek tiliga tarjima qilinganda, aksar qismi o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish mumkinligi kuzatiladi, ammo *to be on cloud nine* – to‘qqizinchi bulutda bo‘lmoq iborasi o‘zbek lingvomadaniyatida uchramaydigan tushuncha, to‘qqizinchi bulut konsepti hech qanday konnotatsiyaga ega emas. Tahlilga olingan asarlarda uchragan misollarga e’tibor qaratsak: “Here’s how my emotions go,” Morrie told Koppel. “When I have people and friends here, *I’m very up*. (Tuesdays with Morrie, P.21.) // – Kayfiyatimga kelsak, – dedi Morri Kopplega, – tanishlarim va do‘stlarim yonimda bo‘lganida o‘zimni yaxshi his qilaman. (Morrining seshanba darslari, B.60.)

Ingliz tilida predlog yoki ravish holatida kelganda, uning ilk nominativ ma’nosi *tepa, yuqori* kabi ma’nolarni anlatadi, idiomatik birlik tarzida keladigan ma’no ham uning birlamchi lug‘aviy ma’nosidan shakllanib, kayfiyatning yuqori ekaniga ishora qiladi. Tahlil uchun olingan parchani so‘zma-so‘z tarjima qilish imkonsiz. Chunki, *men juda tepadaman* tarzida tarjima kilish kontekstga ham, gap anglatayotgan mantiqqa ham to‘g‘ri kelmaydi. Demak, tarjimada pragmatik adekvatlilikka erishish uchun o‘zbek tili leksik-semantik birliklaridan eng maqbul muqobil shaklni tanlash tarjimaning optimal yechimi bo‘ladi. Idiomaning o‘zimni yaxshi his qilaman ko‘rinishidagi tarjimasida BAXT – TEPA metaforik modeli saqlanmagan, holbuki, o‘zbek tilidagi *kayfiyati ko‘tarilmoq* iborasi mavjudki, BAXT – TEPA konseptual metaforasining o‘zbek lingvomadaniyatida ham orientatsion shaklda voqelanganini isbotlaydi.

Kayfiyatning tushishi, xafalik insonni jismonan pastga harakatlantiradi. Ruhiyatning cho‘kishi, eng avvalo, tananing holatidan ham seziladi. Masalan, xafa insonning qosh qovog‘i osiladi, labining chekkalari osiladi, qayg‘uga tushgan insonlarda gavdaning cho‘kib qolishi ham kuzatiladi. Ushbu tajribalar ko‘p xalqlarda deyarli bir xilda namoyon bo‘ladi. Ingliz tilidagi SADNESS IS DOWN / XAFALIK – PAST konseptual metaforasi bir necha fe’llar yordamida ifodalangan. I am feeling down (Kayfiyatim past). He’s really low these days (U shu kunlarda kayfiyati past yuribdi). My spirits sank (Ruhiyatim cho‘kib ketdi). I fell into depression (Men depressiyaga tushdim).

*Down, into* kabi ravishlar *pastga, ichiga* ma’nosida qo‘llanilib, kayfiyat va his-tuyg‘ularning tushib ketishida ishlatiladi. Konseptual metaforalarning yana bir o‘ziga xos jihatlaridan biri, ularning kontekstual tabiatiga bog‘liq bo‘lib, vaziyatga qarab SADNESS IS DOWN / XAFALIK – PAST konseptual metaforasi SADNESS IS UP/ XAFALIK – TEPA modeliga ham aylanishi mumkin. As the day wound down, my frustration continued to rise up. (The Café on the Edge of the Wolrd, – P.13) // Kech bo‘lgani sari fig‘onim falakka ko‘tarildi. (Yer chekkasidagi qahvaxona, B.13.)

My frustration level continued to go in the opposite direction of the fuel gauge. (The Café on the Edge of the Wolrd, P.13.) // Yonilg‘im tugab borishiga qarshi o‘larоq, *tushkunligim oshib borardi*. (Yer chekkasidagi qahvaxona, B.13.) Ko‘rinadiki, vaziyatlar hissiyotlarga ta‘sir qilishi bilan tushkunlik, xafalik darajasi oshadi, bunda ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforik modellar o‘xhash tarzda shakllangani tarjimada namoyon bo‘lgan. Vaholanki, o‘zbek tilida ham tushkunlik, g‘am tananing jismonan pastga harakatlanishini ko‘rsatadi. Jumladan, g‘amdan qaddi bukilmоq, darddan cho‘kib qolmoq kabi iboralar fikrimizni dalillaydi.

**Xulosa.** Tahlillardan xulosa qilish mumkinki, zamonaviy lingvistikada metaforalarning kognitiv jihatlariga asosiy e’tibor qaratilgan. Demak, insonning uzoq yillik tajribasi, madaniy qadriyatlar, geografik joylashuvi va tarixiy kechinmalari kabi bir qancha faktorlar asosida shakllanuvchi metaforalarning mantiqiy mohiyati ushbu fenomenni to‘liq anglab yetishga ko‘maklashadi. Ingliz tilida hissiyotlarning

## LINGUISTICS

---

konseptuallashuvi ularning moddiy ko‘rinish olishida, obyekt, suyuqlik sifatida verballahashuvida, ko‘tarilib-tushish xususiyatlari orqali tavsiflanishida ko‘rish mumkin.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Ekman P. *Basic emotions*, in *Handbook of Cognition and Emotion* // eds. T. Dalgleish and M. Power. – Chichester: John Wiley and Sons, 1999. – P.45–60
2. Waggoner J.E. *Temperature-based metonymies for emotions in children and adults* // *Psychological Reports*. № 106 (1), 2010. – P.233-245.
3. Covey S. *The seven habits of highly effective people*. – New York:Simon and Schuster, 1989. – 381p.
4. Mitch A. *Tuesdays with Morrie*. – New York: Doubleday, 1997. – 192 p.
5. Strelecke J. *The cafe on the edge of the world*. – Aspen Light Publishing, 2020. – 136 p.
6. Tracy B. *Eat that Frog*. – Berrett-Koehler Publishers, 2002. – 129 p.
7. Elbom M. *Morrining seshanba darslari*. – Toshkent: Yosh kuch, 2021. – 165 b.
8. Kovi S.R. *Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi*. – Toshkent: Nihol, 2021. – 378 b.
9. Streleki J. *Yer chekkasidagi qahvaxona*. – Toshkent: Sharq-ziyo zakovati, 2021. – 208 b.
10. Treysi B. *Samaradorlikning 21 yo'li*. – Toshkent, 2021. – 92 b.